

UDK: 378.014.15

PEDAGOGIKA FANLARI XAMKORLIGI ASOSIDA TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Xodjibolayeva Nozima Ma'murovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Orcid ID: 0009-0021-3187-210X

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, fanlararo hamkorlik asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi, fanlararo hamkorlik asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi samaradorligi pedagogika fanlari misolida tahlil qilingan bo'lib, uning bugungi kundagi zarurati atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, kompetentlilik, ekologiya, ekologik ta'lim-tarbiya, reproduktiv, muqobillashtiruvchi, retrospektiv, ekologik kompetentlik, kompetensiya

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические основы совершенствования методики формирования экологической компетентности студентов на основе взаимодействия педагогических дисциплин, методическая система формирования экологической компетентности студентов на основе межпредметного взаимодействия, а также эффективность методики формирования экологической компетентности студентов на основе межпредметного взаимодействия на примере педагогических дисциплин, комплексно освещается ее актуальная потребность.

Ключевые слова: культура, экология, экологическое образование, репродуктивная, альтернатива, ретроспектива, экологическая компетентность, компетентность.

METHODOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' ECOLOGICAL COMPETENCE BASED ON COOPERATION BETWEEN PEDAGOGICAL DISCIPLINES

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of improving the methodology for developing students' ecological competence based on cooperation between pedagogical disciplines, the methodological system for developing

students' ecological competence based on interdisciplinary cooperation, and the effectiveness of the methodology for developing students' ecological competence based on interdisciplinary cooperation using the example of pedagogical disciplines, and its current need is comprehensively covered.

Key words: culture, ecology, ecological education, reproductive, alternative, retrospective, ecological competence, competence.

KIRISH. Jahonda ekologik ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish asosida jamiyatda ekologik mas'uliyatni yuksaltirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, global ekologik inqirozlar, ijtimoiy-tabiiy muammolar tabiat, atrof-muhitdagi beqarorliklar uzluksiz ta'lim tizimida ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ortirib yubormoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Rossiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiyada atrof-muhitga insonning antropogen ta'sirini kamaytirish, mutaxassislar ekologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Mazkur jihatlar pedagogika fanlari doirasida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish zaruratini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ekologik ta'lim asoslarining pedagogik jihatlarini, globallashtirish davrida ekologik xavfning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari, talabalarda ekologik kompetentlikning ayrim jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari R.Mizusava, F.A.Randriamahafaly, A.Schick, A.Barvin, N.L.Zayas, G.Corsi, M.Steneken, J.Stokken, T.V.Anisimova, A.Gorelov, O.YE.Kalinina, G.A.Paputkova, O.YE.Perfilova, R.Seyitjanova, Q.Abdurahimov, I.X.Ayubova, P.Berdanova, N.Bozorova, R.X.Djurayev, N.Isakulova, Sh.Kamolxo'jayev, A.Malikova, M.E.Musayeva, V.Nikitin, N.O'Nishonova, X.Norbo'tayev, T.Saparov, V.N.Sattorov, X.Tog'ayev, E.O.Turdiqulov, U.Turdiqulov, D.To'xliyev, A.S.To'xtayev, A.Ergashev, A.Nigmatov, L.Abdunazarov, Sh.Yunusovalar tomonidan amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida "atrof-tabiiy muhit, aholi sog'lig'i va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish", buning uchun esa, ekologik faoliyat va ekologik ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va bu orqali ekologik faoliyat

etikasini rivojlantirish, tabiatni asrab-avaylash, unga oqilona munosabatda bo'lish, ekologik axloqiy mas'uliyatni shakllantirish va bu orqali global ekologik halokatni oldini olishga qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Shu bois talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish asosida ularda axloqiy mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatini beruvchi tizimni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ekologik faoliyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan bo'lajak kadrlar, ekolog mutaxassislarni ekologiyaga axloqiy munosabatni shakllantirish, tabiatni asrab-avaylash, unga oqilona munosabatda bo'lishga o'rgatishga qaratilgan ta'lim metodikasini yaratish zarurati yuzaga chiqmoqda. Shuning uchun ham, "ekologik inqirozning kuchayishi munosabati bilan insonning yer ekotizimidagi o'рни masalasi ekologlar, pedagog olimlar, faylasuflar, madaniyatshunoslarning diqqat markazidagi mavzuga aylandi. Texnologiya rivoji atrof-muhitga antropogen ta'sirning kuchayishi tabiatdan foydalanish va uni himoya qilishning ta'sirchan dasturlarini ishlab chiqishni talab eta boshladi. Bu muammolarni hal etilishi inson va tabiatning uyg'un rivojlanishi ma'lum axloqiy qonun qoidalar talab etadi. Bu esa insonning tabiatga munosabatining axloqiy jihatlari bo'lgan tabiatga muhabbat, uni asrash, himoya qilishning nazariy asoslariga e'tibor qaratishni taqazo qilmoqda.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarni hamda talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha amaliyotdagi holatini o'rganish bu muammoning yechimini topishda quyidagi masalalarga e'tiborni qaratishni talab etdi: talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish muammosining dolzarbligi va pedagogik imkoniyatlarni kengaytirish; oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish; talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish va rivojlanganlik ko'rsatkichlarini aniqlash; ekologik ta'limga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar, uslubiy ko'rsatmalarning yangi avlodini yaratishda dunyodagi yetakchi universitetlar tomonidan to'plangan tajribalardan ijodiy foydalanish.

Ekologik kompetentlikning asosini ekologik bilim, ko'nikma va malakalar tashkil etadi. Shuningdek, ekologik faollik ham uni namoyon qiluvchi omillardan

hisoblanadi. Ekologik faoliyatni maqsad va vazifalariga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1) reproduktiv faoliyat – tabiatni muhofaza qilish ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy institutlarning o'zaro munosabatlarini ekologik talablar asosida qayta tashkil qilish va takomillashtirish;

2) muqobillashtiruvchi faoliyat – tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlarini qondiruvchi muqobil uslub hamda vositalar, harakatlantiruvchi kuchlar ketma-ketligini, izchilligini belgilash;

3) retrospektiv faoliyat – ekologik qadriyatlarning dialektik inkor va ijodiy vorislik munosabatlarini o'rnatishdan iboratdir.

Dunyoda zamonaviy globallashuv jarayoni tez sur'atlar bilan jadallashib borayotgan bugungi kunda, insoniyat salomatligi uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo'layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va shaxsni himoya qilishga qaratilgan milliy strategiyani shakllantirish hamda bu xavflarning yechimini topish uchun atrof-muhit va inson salomatligi muhofazasini takomillashtirish dolzarbdir. Yangi O'zbekistonni 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarining asosini sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshlardagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish, biologik xilmaxillik va ekotizimlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari ustuvor etib belgilandi.

Jamiyat va tabiatning zamonaviy holati tashqi muhit yashash chegaralari sifatining buzilishi, biologik hilma-hillik va barqarorlikning izdan chiqishi, biosferaga tartibsiz ko'rsatilayotgan ta'sirlar natijasida falokatli holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'layapti. Ilmiy - texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyasining nomukammalligi, tabiatga nisbatan iste'molchilik an'analari - bularning barchasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqasidagi ziddiyatlar keskinlashuvining bosh sababidir. Ekologik ta'lim-tarbiya insonning tabiiy qadriyatlarni anglashi, inson va tabiat o'rtasidagi madaniy-biofizikaviy munosabatlari va atrof-muhit haqidagi bilim, ko'nikma va malakalari majmui

deb belgilangan. Ekologik ta'lim-tarbiya tizimini o'rganish jarayonida bir nechta rivojlangan davlatlardagi ekologik ta'lim va tarbiya berish tizimini qiyoslash, ta'lim muassasalarida vujudga keltirilgan innovatsion ta'lim muhiti, zamonaviy o'qitish tizimi va ekologik bilim va ko'nikmalarni yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'lgan omillarni o'rganish va mazkur tajribalardan tadqiqot davomida ijodiy foydalanish asosida samarali usullarini yaratish, talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirish imkonini berdi.

XULOSA. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ekologik muammolarni bartaraf etish va ularning salbiy oqibatlarini oldini olish borasida muayyan tajriba orttirilmoqda. Ammo sohadagi vazifalarning ko'lami mamlakatimiz hamda mintaqada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks hal etishni, bu borada davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi. Zotan sog'lom va go'zal atrof-muhit muhofazasi davlatning, jamiyatning va har bir fuqaroning eng muhim vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзаева Н. Талабаларда экологик компетентликни ривожлантириш тизимини такомиллаштириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Чирчиқ.: ЧДПУ. 2021. –Б. 47.
2. Хушвақтова Х. Олий таълим муассасаларида “экология ва табиатни муҳофаза қилиш” фанини ўқитишнинг методик асосларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Чирчиқ.: ЧДПУ. 2021. –Б. 44.
3. Саломова Г. Талаба-ёшларда этномаданий компетентликни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: ЎзМУ. –Б. 46.
4. Шерқўзиева Г.Ф. ва бошқ. Экология соҳасида этика муаммолари ва уларни ечиш йўллари // Этика ва эстетиканинг долзарб масалалари. Тошкент. 2021. 5-сон, - Б. 22
5. Очилов Ш. Физикани фанлараро ўқитишда ўқувчи экологик компетенциясини ривожлантириш технологиялари. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Самарқанд.: СамДУ. 2021. –Б. 45.